

**O'ZBEK HAMDA INGLIZ TILLARIDAGI FONETIK
O'XSHASHLIKLAR VA FARQLANISHLAR HAMDA ULARNING
TARJIMAGA TA'SIRI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7481925>

Iskandarova Durdona
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
Sherboyev Nosir Anorboy o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali dunyodagi muloqot tillari orasida yetakchi o'rinlarda turuvchi jahon tillarining „Qiroli“ deya yuritiladigan ingliz tili hamda ona tilimizning grammatikasidagi fonetik hodisalari, ularning o'xshash va farqli jihatlari hamda ularning tarjimadagi xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *fonetika, intonatsiya, transkripsiya, urg'u, sintaktik, ekspressiv va hissiy-ta'siriy ma'nolar, allomorfik, izomorfik, affiks.*

Ingliz tili va uning fonetikasidagi ayrim hodisalar hamda o'zbek tili fonetikasi bilan o'zaro o'xshashligi yoki aksincha nomuvofiqliklari tilshunoslikni o'rganayotgan har qanday talaba uchun qiziq bo'lishi tabiiy. **Fonetika** (grekcha "fone" - tovush so'zidan olingan) tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, tildagi tovushlarni o'rganuvchi sohadir[1]. Fonetika biror tildagi nutq tovushlarini, unli va undoshlarni, ularning paydo bo'lishi, rivojlanish qonuniyatlari, umuman, inson tovushlarini o'rganadi. Fonetika nutq apparati, bo'g'in va ularning tuzilishini tekshiradi, shuningdek, adabiy talaffuz normalarini, tovushlar o'zgarishini, urg'u, intonatsiya va uning turlarini o'rganadi. Ushbu ikki tilning fonetik o'xshashligiga e'tibor bersak, hayolimizga birinchi navbatda har ikkalasining alifbosi keladi. Ingliz tili va o'zbek tilining harflar tizimi lotin alifbosiga asoslangan. Garchi harflar lotin alifbosida bo'lsa-da, ularning talaffuzi va tovushlar sonida nomutanosibliklar bor. Ya'ni o'zbek tilida 29 ta harf 30 ta tovush, ingliz tilida esa 26 ta harf va 44 ta tovush mavjud. O'zbek tilidan farqli

o'laroq, ingliz tilidagi tovushlar soni harflar sonidan ancha ko'p ekaniga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu orada „Nima uchun ingliz tilida tovushlar soni harflar sonidan ko'proq?” - degan savol yuzaga keladi. Chunki ingliz alifbosidagi ayrim harflar, jumladan c, g, x, s lar bitta harf bo'lib yozilsa ham, ishlatilayotganda yonida unli va undosh harflarning kelishiga qarab turlicha talaffuz qilinish xususiyatiga ega. Misol uchun “cat”, “countable” va “content” so'zlarida c harfi k tarzida talaffuz qilinadi, ammo “celebrate”, “centre” so'zlarida esa s deb o'qilaveradi. Yoki “examine”, “example” so'zlarida x harfi gz shaklida, “except”, “export” so'zlarida ks deb aytiladi. Harflarning turlicha talaffuz qilinishi ko'p hollarda so'zlovchini adashib ketishiga va nutq jarayonida qo'pol xatolar qilishiga olib keladi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotganda, professional bo'lgan o'qituvchilar noldan boshlagan o'quvchilariga so'zlarni qanday talaffuz qilinishi kerakligini transkripsiya orqali tushuntirib ketadi. Fanda bu so'z quyidagicha izohlanadi: **transkripsiya** muayyan tildagi nutq tovushlari, so'z shakli qanday talaffuz qilinishi, o'qilishi kerakligini ko'rsatuvchi maxsus belgilar tizimidir. Sodaroq qilib aytganda, mashhur rus filmidagi Galkin kabi harflarni xunuk talaffuz qilib, bu xatoni issiq kartoshkani yeb to'g'irlagandan ko'ra, transkripsiya yordamida ijobiy natijaga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi[2].

Fonetika bo'limida nafaqat harflar balki, urg'u ham alohida ahamiyatga ega hisoblanib, o'zbek va ingliz tillarida so'zlarga urg'u turlicha qo'yiladi. Ushbu jumlagata'rif beradigan bo'lsak, **urg'u** - so'z bo'g'inlaridan yoki gapda ishtrok etayotgan so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi. Yana ingliz tilining og'zaki nutqida grammatik so'zlar, jumladan yordamchi fe'llar, yuklamalar, olmoshlar va artikllar odatda hech qanday urg'u qabul qilmaydi. Bu boradagi o'xshashlik o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, ayrim qo'shimchalar (shaxs-son, bo'lishsizlik, ravish yasovchi, **affiks** (qo'shimcha) yuklamalar, sonning ma'no turini hosil qiluvchi, ota ismi va familiyaga qo'shiluvchi qo'shimchalar) bog'lamalar va ko'makchilar hech qanday urg'u olmaydi. Urg'uning jozibadorligi shundaki, o'zbek tilida bir so'zning turli joylarida urg'u qo'yilishiga qarab, o'sha so'z ikki xil ma'noni

anglatadi va boshqa- boshqa soʻz turkumida boʻladi (masalan, akade'mik - soʻzida urgʻu e harfiga tushib otni yaʼni ilmiy unvonni bildirib kelsa, akademi'k soʻzida esa urgʻu i ga tushib sifat turkumiga oid soʻzni bildirgan yaʼni akademik litsey) Xuddi oʻzbek tilidagi singari ingliz tilida ham qoʻshma soʻzlar mavjud boʻlib, agar qoʻshma soʻzning bir qismi sifat soʻz boʻlsa, ikkala qismiga ham urgʻu baravariga tushadi: neverending, old-fashioned, hard-headed. Agar soʻzning har ikkala qismi ham ot soʻz turkumidan yasalsa, faqat birinchi qismiga tushadi: **bookcase**, **bookshelf**, **desktop**, **greenhouse**. Qoʻshma feʼllarda esa aksincha, ikkinchi qismga urgʻu tushadi: **understand**, **overlook**, **outperform**. Urgʻu mavzusi boʻyicha biz

”Amerikani kashf qilishimiz” shart emas, shunchaki soʻzlarni qoida asosida talaffuz qilsak nutqimiz yanada ravonlashadi, eshituvchiga yoqimli boʻladi, uni zeriktirmaydi [3].

Tilda har xil **sintaktik**, **ekspressiv** va **hissiy-taʼsiriy** maʼnolarni ifodalovchi murakkab hodisa **intonatsiya** (ohang)dir. Oʻzbek va ingliz tillarida intonatsiyaning ishlatilishida ham bir qancha farqlanishlarni koʻrish mumkin. Masalan, oʻzbek tilida gap boʻlaklari talaffuz qillinganda, ular orasida toʻxtam (pauza) qilinadi. Toʻxtam yozma nutqda vergul bilan ajratilib, uning oʻzgarishi gapning mazmuniga taʼsir qiladi. Yaʼni siz birgina toʻxtam orqali butunboshli nutqingizni chiroyli yoki qoʻpol ohangda aytishingiz mumkin. Quyidagi gap misolida koʻraylik: Siz ahmoq odam emassiz. || Siz ahmoq, odam emassiz! Oʻlim yoʻq, shafqat! || Oʻlim, yoʻq shafqat! Oʻqi, otang kabi ahmoq boʻlma! || Oʻqi otang kabi, ahmoq boʻlma. Misollar orqali shunday xulosaga kelinadiki, ogʻzaki, ayniqsa, yozma nutqda biz eʼtiborga olmaydigan punktuatsiya yaʼni tinish belgilarining ahamiyati nihoyatda katta ekan[4]. Yuqoridagi misollar orqali tilshunoslikdagi asosiy boʻlim hisoblanuvchi fonetikaning ikki til doirasidagi **izomorfik** (oʻxshash) va **allomorfik** (farqli) jihatlar bilan qisman tanishtirib oʻtildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Jonathan Marks // English Pronunciation in Use (Elementary) 2007
2. Sh. Shaabdurahmonova // Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1-qism.1980

3. Q.1/Nilufar Rasulova // Ona tilidan ma'ruzalar 1-kitob „Nurafshon ziyo yog'dusi”, 2018. -540 b
4. Word Stress in English // Practice Time pg 90-91
5. Dilrabo, Kattaboeva. "Effective strategies and techniques of teaching English vocabulary." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 1454-1457.
6. Каттабаева, Дилрабо Каттабаевна. "Pragmatic and semantic features of adjectival components in phraseological units." *Молодой ученый* 14 (2018): 75-77.